Terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini tergov qilishda diniy psixologik bilimlarning psixologik ahamiyati

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev
Abbosbek To‘xtasin-o‘g‘li Qo‘chqarboyev
Farangiz Muhiddinjon-qizi Komilova
University of business and science

Annotatsiya: Mazkur maqolada terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini tergov qilishda diniy-psixologik bilimlarning ahamiyati yoritiladi. Shaxsning diniy dunyoqarashi, e’tiqodi, psixologik xususiyatlari, xulq-atvor motivlari va guruh ta’siriga beriluvchanligini o‘rganish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tergov jarayonida diniy va psixologik bilimlardan foydalanishning muloqot samaradorligini oshirish, ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish va inson huquqlariga rioya etishdagi o‘rni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: terrorizm, diniy ekstremizm, diniy-psixologik bilimlar, tergov psixologiyasi, diniy dunyoqarash, e’tiqod, xulq-atvor motivlari, guruh ta’siri, radikallashuv

The Psychological Significance of Religious-Psychological Knowledge in Investigating Crimes Related to Terrorism and Religious Extremism

Khaydarjon Odilboyevich Jurayev
Abbosbek Tukhtasin-ogli Qochqarboyev
Farangiz Muhiddinjon-qizi Komilova
University of Business and Science

Abstract: This article examines the importance of religious and psychological knowledge in investigating crimes related to terrorism and religious extremism. It analyzes an individual's religious worldview, beliefs, psychological characteristics, behavioral motives, and susceptibility to group influence. Particular attention is given to how religious and psychological knowledge can improve investigative communication, support the accurate interpretation of information, and help ensure respect for human rights throughout investigative procedures.

Keywords: terrorism, religious extremism, religious and psychological knowledge, investigative psychology, religious worldview, beliefs, behavioral motives, group influence, radicalization

(cc) BY

KIRISH

Bugungi kunda terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish hamda ularning oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday jinoyatlarni tergov qilish jarayoni nafaqat huquqiy bilimlarni, balki gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning diniy qarashlari, e’tiqodiy tasavvurlari, psixologik holati, motivlari hamda xulq-atvor xususiyatlarini chuqur o‘rganishni ham talab etadi. Mazkur jarayonda diniy-psixologik bilimlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Chunki shaxsning diniy e’tiqodi, dunyoqarashi, guruhiy ta’sirga beriluvchanligi, manipulyatsiyaga moyilligi va psixologik ehtiyojlarini tahlil qilish jinoyat sodir etish motivlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, diniy g‘oyalardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish, radikal qarashlarning shakllanishi va shaxsga mafkuraviy-psixologik ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘rganish tergov faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini tergov qilishda diniy-psixologik bilimlardan foydalanish gumon qilinuvchi shaxsning psixologik portretini shakllantirish, uning xatti-harakatlari motivlarini anglash, so‘roq jarayonida samarali psixologik yondashuvni tanlash hamda tergov harakatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda diniy e’tiqodning o‘zi jinoyat yoki radikallik belgisi sifatida baholanmasligi, shaxsning huquqlari va diniy qarashlariga hurmat bilan yondashilishi zarur.

Terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini tergov qilish jarayonida diniy-psixologik bilimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday jinoyatlarni o‘rganishda shaxsning diniy dunyoqarashi, e’tiqodi, psixologik holati, xulq-atvor motivlari va guruh ta’siriga beriluvchanligini hisobga olish talab etiladi. Diniy bilimlar diniy tushunchalar va qarashlarning mazmunini to‘g‘ri anglashga yordam bersa, psixologik bilimlar shaxsning ruhiy holati, motivlari va xatti-harakatlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Shu bois diniy-psixologik bilimlardan kompleks foydalanish tergov harakatlarini xolis, qonuniy va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonida tergovchining kasbiy psixologik xususiyatlari uning tergov hara-katlarini o‘tkazishga ijtimoiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy va ruhiy-psixolo-gik tayyorgarlik darajasi bilan birga diniy bilimlariga ham bog‘liq. Jumla-dan, u an’anaviy (to‘g‘ri yo‘ldagi) diniy ta’limot bilan ekstremistik ruhdagi diniy ta’limotlar farqini aniq bilishi lozim.

Tergovchining hokimiyat vakolatlariga egaligi boshqa protsess ishtirok-chilari bilan muloqot qilishda katta psixologik omil hisoblanadi. Shu sababli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va boshqa protsess ishtirokchilari ongida tergovchining «qoralovchi» mansabdor shaxs sifatida gavdalanishi tabiiydir. Aslida tergovchi

(cc) BY

haqiqatni ro‘yobga chiqaradigan, ishni obyektiv, har tomon-lama, keng o‘rganib qonun doirasida xulosa chiqarish vazifasi yuklatilgan xodimdir. Shu sababli u terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlari bo‘yicha gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga ularni rahnamolarini asl maqsadi hokimiyatni egallash ekanligini, ular terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatiga jalb qilingan oddiy shaxslardan (bajaruvchilardan) qo‘g‘irchoq sifatida foydalanayotganliklarini tushuntirishi lozim. O‘zining aldanganini bilgan shaxslar tergov harakatlari jarayonida to‘g‘ri ko‘rsatma bera boshlaydi. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda gumon qilinuvchi bilan muloqot chog‘ida agar uning aybi bo‘lmasa jinoiy javobgarlikka tortilmasligi, ishning obyektiv holatlarini tergovchini chalg‘itmasdan to‘g‘ri bayon qilishi bevosita unga yengillik yaratishi mumkinligini uning ongiga singdira olsa, ishni obyektiv tergov qilishga, boshqa ishtirokchilarni aniqlash va ishni belgilangan muddatda sudga oshirishga erishadi. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchi doimo psixologik jihatdan muloqotga kirishishi og‘ir bo‘lgan shaxslar - gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan tergov harakatlarini olib boradi. Tergov jarayonida psixologik jihatdan aniq bir holat bo‘yicha turli variantdagi qarorlar qabul qilishni avvaldan rejalashtirish zarur. Qaror qabul qilish esa obyektiv va subyektiv omillar natijasiga ko‘ra amalga oshiriladi. Obyektiv omillarga tergovchining jinoyat ishi holati bo‘yicha aniq ma’lumotni va daliliy ashyolarni olganligi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan tergov harakatlarini o‘tkazishda muloqot qilishga erishilgani, tergov harakatlarini o‘tkazish uchun yetarli sharoit yaratilgani va boshqalar kiradi. Subyektiv omillarga esa tergovchining diniy (ayniqsa, ekstremistik ruhdagi oqimlarning g‘oyalari haqidagi) bilim darajasi, fikrlash doirasi, tajribasi, xotirasi, muloqotga kirishish qobiliyati, so‘zlashi, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi his-hayajonlari, tuyg‘usini to‘g‘ri anglashi, uning ongida samimiylikni shakllantirish qobiliyati kabilar kiradi.

Tergovchi tomonidan o‘tkaziladigan tergov harakatlari o‘z mazmuniga ko‘ra tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda rivojlanadigan, taxmin va tusmollar-dan kelib chiqib dalil va isbotlarni to‘plash orqali jinoiy qilmishni tasdiqlay-digan ko‘rinish olishi kerak. Shuning uchun birinchi galda tergovchi o‘zining diniy bilimlaridan foydalanib, shaxsning aldanganligini, terroristik tashkilot-larni dinga oid g‘oyalari noto‘g‘ri ekanligini, ularning aybini fosh etuvchi diniy manbalardan (Qur’oni Karim, hadis) foydalanib oshkoralik muloqotini o‘rnatishi lozim. Tergovchi terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq ishlarni tergov qilish jarayonida doimo turli xarakterdagi odamlar bilan ishlaydi, jumladan, agressiv, beparvo, mas’uliyatsiz, qo‘rqoq yoki bularning aksi. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida turli psixikaga ega bo‘lgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan ishlashidan qat’i nazar, tergovchi olingan xulosalarga xolisona, adolatli, obyektiv baho berishi lozim hamda asabiylashish, dalil va isbotlarni topish boshi berk ko‘chaga kirganda sarosimaga tushmasdan qonunda

(cc) BY

ko‘rsatilgan tegishli qarorlarni qabul qilishi lozim. Terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda asabiylashish ko‘proq uchrashi mumkin, bu - jabrlanuvchilarning ko‘pligi, ko‘p miqdorda zarar yetkazilganligi, gumon qilinuvchining davlat idoralariga salbiy munosabati va boshqalar. Har qanday holatda tergovchi qonun doirasida jinoyat ishini tergov qilishi va hissiyotlar ta’siriga tushib qolmasligi lozim.

Aksincha diniy bilimlarga suyanib, begunoh odamlarni o‘ldirish dinda qoralanishini gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga tushuntirishi lozim. Terrorizm bilan bog‘liq jinoyat ishlarida tergov harakatlarini samarali tashkil qilish, kutilgan natijaga erishishini ta’minlashda tergovchining shax-siga bog‘liq ruhiy-psixologik sifatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bular tergovchining - aqliy, irodaviy va muloqotga kirishuvchanlik (kommuni-kativ) sifatlaridir. Tergovchining aqliy tafakkuri terrorizm jinoyatini sodir etgan shaxsdan yuqori bo‘lishi lozim. Ya’ni: birinchidan, huquqiy bilimlari - qonunchilikni mukammal bilishi, tergov jarayonida o‘tkaziladigan harakatlarini qonun talablariga ko‘ra ketma-ketlikda o‘tkazishi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi; ikkinchidan, terrorizm, ekstremizm, separatizm, aqidaparastlik, fanatizm kabi jinoiy guruh va tashkilotchilarining asl maqsadi nima ekanligi, shu-ningdek, diniy bilimi, an’anaviy Islom ta’limoti, Qur’oni Karim, hadis va boshqa manbalardan xabardor bo‘lishi; uchinchidan, dunyoqarashi keng bo‘lishi, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat, ulardagi o‘zga-rishlar haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, tergovchining vaziyatni to‘g‘ri baholab tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ham terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarni tezroq ochish va aybdorlarni fosh etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu borada tergovchi terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq ishdagi (tergov harakatlarini o‘tkazish chog‘ida) o‘ta nozik jihatlarni kuzatishi, har bir ekstremistik guruhlar, ularning tuzilishi, tarkibi, g‘oyalari va boshqa jihatlarini mukam-mal bilishi, undagi mayda, ikir-chikirlariga e’tibor berishi, fikrini jamlay olishi, vaziyatga to‘g‘ri baho berishi va boshqa kasbiy ko‘nikmalari unga terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatni tergov qilishda qo‘l keladi.

Xulosa sifatida terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini tergov qilishda diniy-psixologik bilimlardan foydalanish shaxsning xatti-harakatlari va ularni yuzaga keltirgan omillarni chuqurroq anglash imkonini beradi. diniy bilimlar e’tiqod va diniy tushunchalarning mazmunini to‘g‘ri talqin qilishga yordam bersa, psixologik bilimlar shaxsning motivlari, hissiy holati, ijtimoiy muhit ta’siri va guruhga ergashish xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, diniy e’tiqodning o‘zi ekstremistik faoliyat belgisi hisoblanmaydi. Shuning uchun tergov jarayonida shaxsning diniy qarashlari bilan uning aniq xatti-harakatlari va jinoyatga aloqadorligini farqlash muhimdir. Diniy-psixologik bilimlarni huquqiy me’yorlar va

(cc) BY

kasbiy etika asosida qo‘llash tergovning xolisligi hamda samaradorligini ta’minlashga yordam beradi.

Amaliy tavsiyalar

1. Tergov xodimlarining diniy bilimlari va amaliy psixologiya bo‘yicha kasbiy tayyorgarligini oshirish.

2. Shaxsning diniy e’tiqodi va ekstremistik faoliyatga aloqador xatti-harakatlarini o‘zaro farqlash.

3. So‘roq jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, hissiy holati va muloqot uslubini hisobga olish.

4. Radikallashuv jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy muhit, guruh bosimi va psixologik omillarni kompleks o‘rganish.

5. Diniy mazmundagi tushuncha va iboralarni izohlashda malakali dinshunos mutaxassislar bilan hamkorlik qilish.

6. Tergov harakatlarida bosim, kamsitish va diniy qarashlarga nisbatan noto‘g‘ri munosabatga yo‘l qo‘ymaslik.

7. Psixologik kuzatuv natijalarini boshqa dalillar bilan birgalikda baholash va ularni aybdorlikni tasdiqlovchi mustaqil dalil sifatida qabul qilmaslik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova A.A., Norboev A.N.. YUridicheskaya psixologiya. TGYUI. 2005 g.

2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. ―Turon-iqbol‖ nashr. T. 2006 -118 b

3. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

4. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O`quv qo`llanma. T.2006.-67

5. Исмоилов К. Ҳуқуқий психология ҳамда судьяларнинг касбий-малакавий ҳуқуқий психологияси тушунчалари. Т. ―Ношир нашр. 2011. -26 б.

6. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi: Darslik / B.N. Sirliyev, I.A. Sottiyev va boshq.; Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 329 b.

7. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.

8. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261

9. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.

10. Baxtiyor, Q. (2023). O 'SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O 'RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.

11. Odilboyevich, J. X. (2025). O 'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'siri. Central Asian Journal of Education and Innovation, 4(4), 150-153.

12. Odilboyevich, J. X. THE INFLUENCE OF ACCENTUATION OF CHARACTER AND TENDENCY TO PSYCHOPATHY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. THE ROLE OF DISCIPLINE" INTRODUCTION OF MEDISICAL PLANTS" IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF SPECIALISTS IN THE TECHNOLOGY OF GROWING MEDISICAL PLANTS, 94.

13. Odilboyevich, J. X. SOCIAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CHANGES IN BEHAVIOR AND DISORDERS IN CHARACTER OFA TEENAGER AND A TEENAGER. MATERIALLARI TO 'PLAMI, 62.